

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA
O'QUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISHNING HAR BIR TEMPERAMENTGA EGA
BOLALARDA O'ZIGA XOSLIGI**

Abdiraimova Xusnobod Samat qizi

QarDU Pedagogika fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim)

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning asosiy vazifasi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni hozirgi zamon talabi darajasiga chiqqan mantiqiy tafakkurni o'stirish, har bir temperamentga ega bolalarda o'ziga xosligini o'rgatishdan iborat.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, psixologiya, tafakkur, fikrlash, temperament, xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik.

Mantiq – o'ylashga, fikrlashga o'rgatadi. Tafakkur – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi jarayon bo'lib, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Tafakkur yuritish ma'lum muammoli vaziyatda vujudga keladi. Muammoni yechish vaqtida bosh miyada chuqur tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish sodir bo'ladi. Tafakkur jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish oson ish emas. Uning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlarini hisobga olish kerak. Buning uchun o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish, turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir o'quvchining mantiqiy tafakkur yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish, ijodiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning barchasida ham tafakkurning o'sishi va rivojlanishi bir tekis va bir xil

bo'lavermaydi, albatta. O'quvchilarning individual xususiyatlari ko'p darajada boshqa psixik jarayonlarning: xotira, xayol, nutq, diqqat, irodaning o'sishi bilan belgilanadi.

Turli insonlarda tafakkur xususiyatlari turlicha tarkib topgan va turlicha ko'rinishda bo'ladi. Bir kishining o'zida ham tafakkurning turli xususiyatlari turlicha nomoyon bo'ladi. Bularning hammasi tafakkurning individual xususiyatlarining asosini tashkil qiladi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik darajasi, epcillik, fikrlashning tezligi kabilar kiradi.

B.M. Teplov temperamentga quyidagicha ta'rif beradi: “Temperament deb, ayni bir odam uchun xos bo'lgan emotsional qo'zg'auvchanlik, ya'ni, bir tomondan, hislar paydo bo'lishining tezligi, va ikkinchi tomondan, ularning kuchi bilan bog'liq bo'lgan psixik xususiyatlarning yig'indisiga aytiladi”. **Temperament** – bu inson faoliyati va xulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indi. Shunday qilib, temperament ikki tarkibiy qism – faollik va hissiyotlilikka ega. Xulq-atvorning faolligi harakatchanlik, intiluvchanlik, tezlik, yoki, aksincha, sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi.

Xolerik – tez, ba'zida, hatto, juda keskin, nutqda, mimika va imo-ishoralarda yaqqol ifodalanadigan kuchli tezda alanganadigan hislarga ega, jadal emotsional ta'sirlanishga moyil odam, hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarda sezuvchanlik kuchli ammo diqqatni jamlash sekinroq bo'lganligi uchun bunday bolalar mantiqiy masalalarni tez yechishi mumkin. Lekin diqqatni jamlay olishi qiyinligi va har tomonlama fikrlamay tezda qaror qabul qilishi oqibatida masala va misollar javobini xato ishlashi mumkin.

Sangvinik – tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotsional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq-atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir-birini oson almashtiradi, hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarning beqarorligi sababli mantiqiy masalalar ustida ishlashga qiynalishi ya'ni masala murakkabroq bo'lsa masalani javobini topguncha zerikib masala javobini topishdan ham voz kechishi

mumkin. Balki uning teskarisi bo'lib, faolligi, harakatchanligi evaziga tezda masala javobini topishi ham mumkin.

Melanxolik – emotsional kechinmalar xilma-xilligining uncha katta emasligi, lekin katta kuchga va davomiylikka egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi, agar bildirgudek bo'lsa ham chuqur o'ylaydi, o'z hislarini u darajada namoyon qilmaydi, hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarni mantiqiy masalarni yechishga qiziqtirish qiyin ammo bu tipdagi bolalarda sabr –matonat kuchliligi uchun. Mantiqiy masalalarni yechishga qiynalmaydi va murakkab va o'ta murakkab bo'lgan mantiqiy masalalarni yechishda ham ular ijobiy natijaga erishishadi. Ular masala javobini har tomonlama o'ylab ko'rishga erinmaydilar va buning natijasida to'g'ri qaror qabul qiladilar.

Flegmatik – sust, mutanosib va xotirjam odam, uning emotsional ta'sirlanishi oson emas, va o'zidan chiqarish qiyin, hislari tashqaridan deyarli namoyon bo'lmaydi, hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarda mantiqiy masalarni yechishga qiziqtirilsa, sekin yechishlari mumkin. Ammo masala murakkab bo'lsa ham javobini topmaguncha qo'ymaydilar.

Har qaysi odam temperamentini batamom bir tip doirasigagina bo'lmaydi albatta. Tip tushunchasining o'zi faqat bir-birlariga o'xshash bir guruh odamlarigagina o'z ichiga olishligini nazarda tutadi. Har qaysi odam temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu shaxsning o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishini ko'ramiz. Masalan, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin.

Har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan holda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Fikrlash jarayonlarini guruh

sharoitida, dars paytida ham o‘stirish va bunga qisqa yo‘llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat tafakkurning o‘shiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, tafakkur jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samarali qiladi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko‘plab nostandart fikrlarning tug‘ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya” darslik ,Toshkent-2019
3. E. E. Jumayev, “Boshlang‘ich matematika nazaryasi va metodikasi” Toshkent-2010
4. Nabiyev.A, Abdiraimova.X “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarnimantiqiy tafakkurlarini shakllantirish”
“Муғаллим” Qoraqalpog‘iston 2021-yil 2-son

